

NASHRIYOTDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mannopova Manzura Jamil qizi

Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrası assistenti

Annotatsiya

Maqola zamonaviy axborot texnologiyalarining nashriyot sohasida qo'llanilishini o'rganadi. Nashriyotdagi kompyuter tizimlarining rivojlanishi, jumladan, matn va grafik materiallar yaratish, tahrirlash, va nashr qilishdagi avtomatlashtirish jarayonlari muhokama qilinadi. Nashriyotning samaradorligini oshirishda stol nashriyot tizimlari (Desktop Publishing — DTP)ning roli alohida ta'kidlanadi. Maqolada nashriyotda axborot texnologiyalarining integratsiyasi va bu texnologiyalarning zamonaviy bosma jarayonlarini takomillashtirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, maqolada matbaa mahsulotlariga ishlov berish va nashrni yaratishdagi yangiliklar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, zamonaviy nashriyot jarayoni, stol nashriyoti, kompyuter tizimlari, DTP, poligrafiya.

Аннотация

Статья посвящена использованию современных информационных технологий в процессе издательского дела. Рассматривается развитие компьютерных систем в издательствах, включая автоматизацию процессов создания, редактирования и выпуска текстовых и графических материалов. Особое внимание уделяется роли систем настольной верстки (Desktop Publishing — DTP) в повышении эффективности издательского процесса. В статье анализируется интеграция информационных технологий в издательские процессы и их влияние на совершенствование современных печатных процессов. Также рассматриваются новшества в полиграфическом процессе и создании публикаций.

Ключевые слова: информационные технологии, современный издательский процесс, настольная верстка, компьютерные системы, DTP, полиграфия.

Annotation

The article discusses the use of modern information technologies in the publishing process. It covers the development of computer systems in publishing, including the automation of processes for creating, editing, and publishing text and graphic materials. Special emphasis is placed on the role of Desktop Publishing (DTP) systems in increasing the efficiency of the publishing process. The article analyzes the integration of information technologies into publishing processes and their impact on improving modern printing processes. Innovations in the printing process and publication creation are also discussed.

Keywords: information technologies, modern publishing process, desktop publishing, computer systems, DTP, printing.

KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi va ulardan nashriyot sohasida foydalanishning kengayishi, bugungi kunda nashriyot jarayonlarining samaradorligi va sifatini sezilarli darajada oshirdi. Nashriyotlarda kompyuter tizimlarining joriy etilishi matn va grafik materiallarni yaratish, tahrirlash, nashr qilish va tarqatish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ayniqsa, stol nashriyot tizimlari (Desktop Publishing — DTP) kabi ilgʻor texnologiyalar, nashrlar ishlab chiqarishning tezligini oshirgan holda, yuqori sifatli mahsulotlarni yaratishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu holatlar nashriyot sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, ularni nashriyot jarayonlarini takomillashtirishda keng qoʻllash va yangi texnologiyalarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Shunga koʻra, axborot texnologiyalarining nashriyot jarayonlariga integratsiyasi, matbaa sohalarida keng joriy etish boʻyicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyati mavjud.

ADABIYOTLAR SHARHI

Nashriyot va matbaa sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish borasida xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan koʻplab tadqiqotlar olib borilgan boʻlib, bu borada mahalliy olimlar tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlar kam. Xorijiy olimlardan Shaposhnikov A.S. va Myakyshev S.L. tomonidan nashriyot sohasidagi zamonaviy axborot texnologiyalariga oid olib borilgan izlanishlar, nashr jarayonining samaradorligini oshirishdagi muhim yutuqlarni taqdim etadi.

Shaposhnikov A.S. (2010) asarida nashriyotlarda kompyuter tizimlaridan foydalanishning muhim aspektlarini koʻrib chiqadi. Uning fikricha, nashriyot jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etish, axborot oqimlarini boshqarishda va axborotlarni tez va samarali qayta ishlashda muhim oʻrin tutadi. Shaposhnikov, zamonaviy nashriyot tizimlarining ishlab chiqilishida kompyuter texnologiyalari va dasturiy taʼminotning roli alohida eʼtiborga molik ekanligini koʻrsatadi.¹

Myakyshev S.L.ning asarida axborot texnologiyalarining nashriyotdagi oʻrni va ularning ishlab chiqarish jarayoniga taʼsiri tahlil qilinadi. Myakyshev, axborot texnologiyalarining nashriyotdagi barcha bosqichlarga — matnni tayyorlashdan tortib, bosma materiallarni chiqarishgacha boʻlgan jarayonlarga qanday integratsiya qilinishini koʻrsatadi. Myakyshev oʻz asarida shuningdek, internet orqali nashrlarni tarqatish va elektron nashrlar sohasidagi oʻzgarishlarni ham oʻrganadi, bu esa nashriyotlarni yangi auditoriyaga yetkazishda muhim omil hisoblanadi.²

¹ Шапошников, А.С. Издательские компьютерные системы. М.,2010. С.38.

² Мякишев, С.Л. Информационные технологии в издательском деле, 2010. С.46

TAHLIL VA NATIJALAR

Nashriyot faoliyati kitoblar, jurnallar, gazetalar, bukletlar, reklama materiallari tayyorlash va tarqatish bilan bog'liq jarayonni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, ya'ni ma'lumotlarni qayd etish, saqlash, qayta ishlash va uzatish usullaridan foydalanish nashriyot va poligrafiya sohasida muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda nashriyot va poligrafiya ishlarini olib boradigan tashkilotlar va kompaniyalar o'z ishlarini amalga oshirish uchun kompyuter texnikasi va turli dasturiy ta'minotlardan faol foydalanmoqda. Bu sohada eng keng tarqalgan texnologiyalar orasida stol nashriyot tizimlari (Desktop Publishing – DTP) alohida o'rin tutadi.

Stol nashriyot tizimi — bu kompyuter, matnni tuzish, dizayn qilish va tasvirlarni tahrir qilish dasturlari, skaner va chop etish qurilmasidan tashkil topgan tizimdir. Avvalgi davrlarda katta xonalarda joylashgan va ko'plab maxsus mutaxassislarni talab qilgan uskunalar endi kichik, qulay qurilmalarga aylangan. Ushbu tizimning asosiy afzalligi shundaki, u nashrni kompyuter ekranida to'g'ridan-to'g'ri WYSIWYG («Nima ko'rsangiz, shuni olasiz») rejimida yaratish imkonini beradi.

Stol nashriyot tizimlarining (SNH) o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlash muhim, chunki ular matn tahrirlovchilardan sezilarli darajada farq qiladi. Birinchi navbatda, SNHda nashriyot jarayonlarini avtomatlashtirish darajasi juda yuqori. Bu sahifalar va matn paragraflarini maketlash, bir nechta sahifadan iborat hujjatlarni tartibga solish (maxsus fayl tuzilmasi bilan), tasvirlarni tahrirlash va tipografik effektlar qo'llash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, matn yoki tasvirlarni dasturga import qilishda maxsus filtrlar yordamida fayllar maket talablariga va tizimning ehtiyojlariga moslashtiriladi. Shuningdek, matn tahrirlovchilarda mavjud bo'lgan barcha funksiyalar, masalan, matnni izlash, tahrirlash yoki imlo tekshirish, SNHda ham mavjud bo'lib, ular ko'proq samarali va ishonchli ishlaydi.

1-jadval

Kompyuter texnologiyalarining nashriyot sohasida qo'llanilishi va rivojlanishi xronologiyasi.¹

№	Yillar	Nashriyotda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish
1.	1980-yillar	Birinchi Macintosh kompyuterlari (Apple) paydo bo'ldi. Hercules kompaniyasi birinchi marta shriftlarni ko'rsatish imkonini beradigan monitorni taqdim etdi.
2.	1985-yillar	PageMaker dasturi nashriyot sohasida ishlash uchun yaratilgan birinchi professional dastur edi.
3.	1987-yillar	Adobe kompaniyasi PostScript tilining birinchi versiyasini chiqardi. Ventura Publisher (hozirda Corel kompaniyasiga tegishli) va QuarkXPress dasturlari paydo bo'ldi.
4.	1988-yillar	Kompyuterlarda rangli tasvirlarni ishlash imkoniyati yaratildi va QMS kompaniyasi birinchi rangli lazerli printerni ishlab chiqardi.
5.	1990-yillar	Multimedia kompyuterlari va masshtablash shriftlari mavjud bo'ldi.
6.	1991-yillar	Photoshop dasturining 2.00-versiyasi rangli tasvirlarni tahrirlash imkoniyatini yaratdi.

¹ Muallif ishlanmasi

90-yillarning boshida multimedia kompyuterlari va masshtablash shriftlari mavjud bo'ldi, va 1991-yilda Photoshop dasturining 2.00-versiyasi rangli tasvirlarni tahrirlash imkoniyatini yaratdi. Bu nafaqat tasvirlarni, balki kitob nashriyoti uchun eng murakkab bo'lgan jarayonlardan biri — tasvirlarni tayyorlashni soddalashtirdi. Shuningdek, imlo, grammatik va stilistik xatoliklarni tekshirish ham osonlashdi.


Bugungi kunda bosma nashrlar va matbaa bozorida PageMaker va QuarkXPress dasturlari katta mashhurlikka ega. PageMaker dasturi endi rivojlanmaydi (so'nggi versiyasi 7.0). Unga raqobatlashuvchi InDesign dasturi sezilarli o'zgarishlarga uchragan va dasturiy ta'minot bozorida tez rivojlanmoqda. Shunga qaramay, PageMaker dasturi kitoblarni dizayni uchun qudratli vositalarga ega, rang bilan ishlash mexanizmi yaxshi, matn va grafik materiallarni eksport va import qilish uchun keng filtrlar to'plamiga ega. Shuningdek, dasturda o'z ssenariylarini yaratish vositalari mavjudligi ham ta'kidlanadi. Ssenariylar yordamida katta hajmdagi sahifalarda rutin ishlarni to'liq avtomatlashtirish mumkin.¹

InDesign dasturining yangi versiyalari eng keng turdagi hujjatlar dizayniga moslashtirilgan. Bu yerda to'liq rangli bosma qo'llab-quvvatlanadi, shuningdek, yangi vositalar paydo bo'lgan (masalan, dastur import qilingan ma'lumotlarni turli tizimlashtirilgan manbalardan, shu jumladan ma'lumotlar bazalaridan, avtomatik ravishda formatlash imkonini beradi).

Deyarli barcha NIS Internet-nashrlarini va kontentlarni tayyorlashni qo'llab-quvvatlaydi, ammo ularning funktsionalligi maxsus web-reditorlarga qaraganda kamroq. Ularning asosiy vazifasi — elektron hujjatni kerakli raqamli formatga mos ravishda, iloji boricha asl namunaga yaqin holda yaratish.

Zamonaviy nashriyot jarayoni nashrning bosma oldi tayyorgarligidan va poligrafik ishlardan iborat. Nashrni loyihalash yoki bosma oldi tayyorgarligini nashriyotlar amalga oshiradi, poligrafiya korxonalari (tipografiyalar, tezkor bosma korxonalari, ko'paytirish laboratoriyalari va boshqalar) esa belgilangan loyihaga ko'ra kerakli nusxalar sonini yaratadi. An'anaviy ishlash shakllaridan tashqari, nashriyotlar bugungi kunda ko'proq tarmoq nashriyotlari sifatida faoliyat yuritmoqda (yoki faqat tarmoqda). Tarmoq nashriyotlari — bu turli xil elektron ma'lumotlarni (matn, grafik, audio va video ma'lumotlari) yaratish, ma'lumotlarga kirishni va uzatishni boshqarish, ma'lumotlarning shaxsiylashtirish jarayonlarini boshqarish va boshqa ko'plab jarayonlarni ta'minlovchi noyob jarayonlar va texnik vositalar majmuasi. Tarmoq tuzilmasida professional nashriyotlar, grafik dizayn byurolari, idoraviy nashriyotlar, texnik provayderlar va tarmoqni intellektual va moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi kompaniyalar va iste'molchilar jalb etilgan. Tarmoq nashriyotlari shuningdek sayt yoki alohida server orqali taqdim etiladi, ularning ajralib turadigan xususiyati — nashriyot mahsulotlarini tarmoq orqali yetkazib berish, foydalanuvchilar uchun yuqori interaktivlik, ma'lumotlar bilan boyitilganlikdir.

¹ Резаева Ю. Использование Современных Информационных Технологий В Издательском Деле //Творчество Молодых. – С. 69.



1-rasm. Nashr jarayonining asosiy bosqichlari¹

Yuqoridagi keltirilgan 1-rasmdagi nashr jarayonining birinchi bosqichi ijodiy konsepsiyani ishlab chiqishdan iborat. Bu bosqichda, nashrning maqsadi va auditoriyasi aniq belgilanadi. Ijodiy konsepsiya, nashrning umumiy uslubi va dizayni, matn va tasvirlar oʻrtasidagi uygʻunlikni aniqlaydi. Konsepsiya yaratishda, bozor tahlili va auditoriya ehtiyojlari inobatga olinadi. Bu bosqichning muvaffaqiyati kelajakdagi barcha jarayonlarning toʻgʻri ishlashini taʼminlaydi.

Ijodiy konsepsiya ishlab chiqilgandan soʻng, ikkinchi bosqichda texnik imkoniyatlar aniqlanadi. Bunda tipografiya (bosmaxona) bilan hamkorlik qilinadi va qogʻoz turi, rangli bosma imkoniyatlari kabi texnik xususiyatlar tekshiriladi. Masalan, qogʻozning turi va sifati, nashrning umumiy koʻrinishi va uzoq muddatda saqlanishiga taʼsir qiladi. Bu jarayonda nashrning tayyorlanishida foydalaniladigan texnik va materiallar belgilab olinadi.

Nashrning turiga qarab, qogʻozning turli turlari tanlanadi. Qogʻozning sifati, turi va qalinligi nashrning koʻrinishiga taʼsir qiladi. Masalan, kitoblar uchun yumshoq va oʻqilishi oson qogʻozlar, sanʼat nashrlarida esa yuqori sifatli yaltiragan qogʻozlar ishlatiladi. Qogʻoz tanlashda uning ekologik tozaligi va boshqa xususiyatlari ham inobatga olinadi.

Matn tayyorlashda dastlab matnlar yigʻiladi, soʻngra tahrirlanadi. Tahrirda imlo va punktuatsiya xatolarini tuzatish, matnni aniq va tushunarli qilish zarur. Matnni dizayn qilishdan oldin professional tahrirchilar tomonidan tekshiriladi. Bu bosqichda matnning tuzilishi va mazmuni konsepsiya bilan mosligi taʼminlanadi.

¹ Muallif ishlanmasi

Grafik materiallar tayyorlanadi, bu rasmlar, fotosuratlar va diagrammalarni o'z ichiga oladi. Tasvirlar sifatini oshirish, nuqsonlarni bartaraf etish, masalan, retush qilish va kerakli qismlarni kesish ishlari amalga oshiriladi. Grafik materiallar maxsus dasturlar yordamida tayyorlanadi va nashrga mosligi ta'minlanadi.

Dizayn va kompozitsiya jarayonida matn va grafik materiallar birlashtiriladi. Dizayner bu bosqichda materiallarni estetik jihatdan uyg'unlashtiradi va o'qish qulayligini ta'minlash uchun ularning joylashuvi, ranglar va shriftlarni tanlaydi. Dizaynning muvaffaqiyati nashrning o'qilishini va foydalanuvchiga ta'sirini oshiradi.

Dizayn va kompozitsiya yakunlangach, nashrning oxirgi versiyasi tahrirchi tomonidan tekshiriladi. Bu bosqichda matndagi va dizayndagi xatolar aniqlanadi va tuzatiladi. Tahrirchi matnning grammatikasi, imlosi va stilini tekshiradi, dizayndagi xatolarni tuzatadi. Bu jarayon nashrning sifatini oshiradi.

Spuskoviy maket nashrning tayyorlangan shakli bo'lib, uni bosmaxonaga yuborish uchun tayyorlanadi. Bu bosqichda barcha matn va grafik materiallar yuqori sifatda birlashtiriladi. Spuskoviy maket nashrning poligrafik sifatini ta'minlaydi va bosma jarayoniga o'tish uchun tayyor bo'ladi.

Bu bosqichda tayyor maket tipografiyaga yuboriladi. Nashrning bosmadan oldingi tayyorgarlik jarayoni yakunlanadi va barcha materiallar bosib chiqarish uchun tayyor bo'ladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nashrning sifatini va chiqarilish vaqtini belgilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ayniqsa, yuqoridagi bosqichlarda jarayonlarni avtomatlashtirish va soddalashtirishga yordam beradi. Grafik dizayn dasturlari, matnni tahrirlash vositalari, raqamli bosma texnologiyalari va boshqa onlayn platformalar nashriyot jarayonlarini tezlashtirib, yuqori sifatli mahsulotlarni tezda yaratishga imkon beradi. Bu nafaqat vaqtni tejash, balki nashr sifatini oshirishga ham yordam beradi.

PageMaker, QuarkXPress va InDesign dasturlari nashriyot va matbaa korxonalari uchun bir qator afzalliklar yaratadi. Ular asosan chop etish jarayonini soddalashtiradi, ish unumdorligini oshiradi va chiroyli dizayn yechimlarini yaratish imkonini beradi. Umuman olganda, nashriyot va matbaa korxonalari uchun bunday dasturlardan foydalanish quyidagi afzalliklarni ta'minlash imkonini beradi:

Dasturlar avtomatlashtirilgan vositalar va shablonlar orqali vaqtni sezilarli tejash imkonini beradi. Raqamli muhitda ishlash qo'lda xatoliklar qilish ehtimolini kamaytiradi. Matn yoki dizaynda o'zgarishlarni tez va oson kiritishni ta'minlaydi.

Dizayn va sifati yaxshilaydi. Murakkab dizaynlar va chiroyli maketlarni oson yaratish imkoniyatini beradi. Matn, rasmlar va grafik elementlarni to'g'ri joylashtirish orqali vizual sifati yuqori bo'lgan materiallarni yaratishni qulaylashtiradi. Har xil bosma materiallar uchun aniq rang va nashrga moslashtirilgan fayllar yaratish imkonini beradi.

Dasturlar ish jarayonini avtomatlashtirib, qo'shimcha mehnat xarajatlarini kamaytiradi. Elektron kitoblar, interaktiv PDFlar va veb-dizayn elementlari yaratish imkoniyati ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шапошников, А.С. *Издательские компьютерные системы*. М., 2010. С. 38.
2. Мякишев, С.Л. *Информационные технологии в издательском деле*, 2010. С. 46.
3. Горохова Н. П. *Информационные технологии в издательском деле* // Вестник Московского государственного социально-гуманитарного института. – 2010. – № 2. – С. 82-86.
4. Резаева Ю. *Использование Современных Информационных Технологий В Издательском Деле* // Творчество Молодых. – С. 69.